

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
№DSc.03/30.12.2019.I.03.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**SHAISLAMOVA MUAZZAMXON RAXIMXODJAYEVNA**

**TELEKOMMUNIKATSIYA KORXONALARIDA INNOVATSION  
FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

**08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD) po  
ekonomicheskim naukam**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
economic science**

**Shaislamova Muazzamxon Raximxodjayevna**

Telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini  
oshirish masalalari..... **3**

**Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna**

Вопросы повышения эффективности инновационной деятельности на  
предприятиях телекоммуникации..... **27**

**Shaislamova Muazzamxon Raximhodjaevna**

Issues of increasing the efficiency of innovative activities at  
telecommunication enterprises..... **51**

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... **55**

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
№DSc.03/30.12.2019.I.03.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**SHAISLAMOVA MUAZZAMXON RAXIMXODJAYEVNA**

**TELEKOMMUNIKATSIYA KORXONALARIDA INNOVATSION  
FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

**08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Iqt1540 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tdtu.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Teshabayev To'lqin Zakirovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kasimova Fatima Tulkunovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ibragimova Saodat Abdumuminovna**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat transport universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.03.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy).

Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32. e-mail: tsu\_info@tdtu.uz). Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32. e-mail: tsu\_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**M.A. Ikramov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d.professor

**O.I. Begmullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)

**G.J. Allayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tajribasining ko'rsatishicha iqtisodiy o'sishni ta'minlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bu borada telekommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter va dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda telekommunikatsiya sohasining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ushbu sohada katta salohiyatga ega bo'lgan Janubiy Koreya, Germaniya, AQSh, XXR va Hindiston kabi mamlakatlar tajribasiga ko'ra yuqorida ko'rsatilgan sohalarni rivojlantirish o'z navbatida innovatsion taraqqiyotni jadallashtirish, eksport salohiyatini rivojlantirish, investitsion faoliyatni yanada faollashtirish, aholining bandlik darajasini oshirish va iqtisodiy o'sish sur'atlarini yuksaltirishga xizmat qiladi. AQShning International Data Corporation (IDC) analitik kompaniyasining tadqiqotlariga ko'ra global telekommunikatsiya sohasi bozorining hajmi 2022-yilda 1,51 trillion dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 5-mayga kelib ushbu ko'rsatkich 2,2 foizga o'sgan<sup>1</sup>.

Jahon amaliyotida telekommunikatsiya sohasini innovatsion rivojlantirish bo'yicha bir qator ilmiy-tadqiqotlar, jumladan, mahsulotlar va xizmatlar taqdim etishda infratuzilma obyektlarini ahamiyati, dunyodagi telekommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan davlatlarni jahon bozoriga ta'siri va raqamli iqtisodiyot innovatsion xizmatlarni taqdim etish manbai sifatida telekommunikatsiya sohasi korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini tadqiq qilish bo'yicha keng ko'lamdagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan<sup>2</sup>.

So'nggi yillarda O'zbekistonda milliy axborot tizimini shakllantirish, Davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish uchun bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasida "tarmoqlar va hududlarni modernizatsiya qilish, ularning raqobatdoshlik darajasini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari doimiy e'tiborimiz markazida bo'lishi lozim. Buning uchun xorijiy sarmoyalar va ilg'or texnologiyalarni hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarini barcha sohalarga yanada faol jalb etishimiz zarur bo'ladi"<sup>3</sup>. O'zbekistonda iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi va sanoat ishlab chiqarishining izchil rivojlanishi, aholi sonining ortishi telekommunikatsiya uskunalari ishlab chiqaruvchi korxonalarining mahsulotlariga va telekommunikatsiya xizmatlariga talabning o'sishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu tendensiyalarni hisobga olgan holda korxonalarining innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish, innovatsion faoliyat samaradorligini baholash uslubini takomillashtirishga oid ilmiy izlanishlar dolzarb ahamiyatga egaligidan dalolat beradi.

---

<sup>1</sup> International Data Corporation (IDC) [www.idc.com](http://www.idc.com).

<sup>2</sup> Huawei and Oxford Economics (2017), "Digital Spillover: Measuring the True Impact of the Digital Economy" at [www.huawei.com/minisite/gci/en/digital-spillover/files/gci\\_digi-tal\\_spillover.pdf](http://www.huawei.com/minisite/gci/en/digital-spillover/files/gci_digi-tal_spillover.pdf).

<sup>3</sup> Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi / Xalq so'zi, 2016 yil 15 dekabr, №247 (6682).

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni, 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4699-son qarori hamda 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosiga ma‘lum darajada xizmat qilmoqda.

**Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda innovatsion faoliyatning nazariy asoslari va innovatsion faoliyatni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari xorijlik olimlardan Y.Shumpeter, B.Santo, K.R.Makkonnell, S.L.Bryu, F.Kotler, B.Tviss, F.Nikson, V.X.Tribushnaya, M.Dodgson, F.Yansen, Sh.Tasuno<sup>4</sup> va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha ko‘rib chiqilgan.

Shu bilan birga, sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari va samaradorligini baholashning ba‘zi jihatlari L.Vodachek, O.Vodachkova, Yu.V.Yakoves, A.I.Prigojijiy, V.X.Tribushnaya, V.I.Pavlyuchenko, R.A.Fatxutdinov, S.N.Yashin<sup>5</sup> kabi MDH olimlarining ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonlik olimlardan sanoat korxonalarining innovatsion faoliyati va unga ta‘sir etuvchi omillar bo‘yicha izlanish olib borgan olimlardan

---

<sup>4</sup> Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм, демократия. М.: Эксмо, 2007. Санто, Б. Инновация как средство экономического развития / Б. Санто. – М.: Прогресс, 1990. – 295 с. Макконнелл, К.Р. Экономикс: принципы, проблемы и политика: в 2 т. 158 / К.Р. Макконнелл, С.Л. Брю. пер. с англ. Н. Н. Барышниковой. – М.: Инфра-М, 2001.– Т. Котлер, Ф. Основы маркетинга / Ф. Котлер. - М.: Прогресс, 1991. - 736 с.Твисс, Б. Управление научно-техническими нововведениями. / Б. Твисс , пер. с англ. К. Пузыня. – М.: Никсон, Ф. Инновационный менеджмент / Ф. Никсон - М.: Экономика, 1997. – 182 с. Трибушная, В.Х. Инновационная инфраструктура как необходимость поддержки наукоёмкого предпринимательства: технопарки и стратегическое управление: Монография / В.Х. Трибушная. – Ижевск: Ижевский государственный технический университет, 2011. – 240 с. Янсен Ф. Эпоха инноваций. М.:Инфра-М, 2002.- 308с. Серия: Менеджмент для лидера ISBN: 5-16-001234-6. Тацуно Ш. Стратегия – технополисы: Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1989.

<sup>5</sup> Водачек Л., Водачкова О. Стратегия управления инновациями на предприятии: Сокр. пер. со словац. / Авт. предисл. В.– С. Рапопорт. – М.: Экономика, 1989. – 167 с., Яковец Ю.В. Закономерности научно-технического прогресса и их планомерное использование. – М.: Экономика, 1984. – 239с., Пригожий А.И. Нововведения: стимулы и препятствия (социальные аспекты инноватики). – М.: Политиздат, 1989. – 270 с., Трибушная, В.Х. Инновационная инфраструктура как необходимость поддержки наукоёмкого предпринимательства: технопарки и стратегическое управление: Монография / В.Х. Трибушная. – Ижевск: Ижевский государственный технический университет, 2011. – 240 с., Павлюченко, В.И. Экономические проблемы управления научно-техническим прогрессом: опыт системного анализа / В.И. Павлюченко. – М.: Наука, 1973. – 224 с., Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. / Учебник для вузов. - СПб.: Питер, 2013. – 448 с. Оценка эффективности инновационной деятельности: учебник / С.Н. Яшин, И.Л. Туккель, Е.В. Кошелев, С.А. Макаров, Ю.С. Коробова. -Нижний Новгород: Изд-во Нижегородского госуниверситета, 2018. 409 с.

L.Shibarshova, A.Qodirov, Sh.Tursunov, M.Maxmudov, N.Iminova, M.Maxkamovalar<sup>6</sup>, aynan telekommunikatsiya sohasini innovatsion rivojlantirish masalalarini tadqiq etgan olimlardan A.Aripov, T.Iminov, T.Teshabayev, X.Muxitdinov va boshqalarning ilmiy tadqiqot izlanishlarida atroflicha o'rganilgan. Ammo, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish va uni baholash uslubiyotini takomillashtirish muammolarining nazariy va uslubiy yechimlari yetarli darajada o'z aksini topmagan va o'rganilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy o'quv yurti ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 06/10-F "Raqamli marketingni boshqarish texnologiyalarini tahlil qilish mavzusidagi" (2021y) amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyatning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etish;

telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyatni tashkil etish jarayonlarini tadqiq etish;

telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyat yo'nalishlarini xorijiy amaliyotini o'rganish;

telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyatining hozirgi holati va uning rivojlanish sharoitlarini tahlil qilish;

telekommunikatsiya uskunalari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini belgilovchi omillarni baholash;

telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash usulini integral ko'rsatkich asosida takomillashtirish;

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan telekommunikatsiya sohasidagi ishlab chiqarish korxonalarining innovatsion jarayonlarini amalga oshirishning tashkiliy

---

<sup>6</sup>Aripov A.N., Iminov T.K. O'zbekiston axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi menejmenti masalalari. Monografiya. T.: Fan va texnologiya, 2005; Teshabayev T.Z. Oliy o'quv yurtlarida innovatsion faoliyatni takomillashtirish yo'llari. 08.00.13. Yo'nalish, i.f.n. dissertatsiya, 2010. 146 b.; Muxitdinov X.A. Проблемы повышения финансово-экономической эффективности инфокоммуникационных услуг в Узбекистане. Диссертация на соис. уч.ст. к.э.н. Т.: 2007; Шибаршова Л.И. Развитие сферы почты и телекоммуникаций Республики Узбекистан в период рыночных преобразований (макроэкономические аспекты) автореферат диссертационной работы. Ташкент.: АН РУз, 2001; Кодиров А.М. и др. Формирование информационного общества в Узбекистане: зарубежный опыт, тенденции и перспективы, Ташкент, Iqtisodiyot-2015 г.; Tursunov Sh.A. Telekommunikatsiya sohasida investitsiya faoliyatini samarali boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. 08.00.13. yo'nalish, i.f.d. dissertatsiya, 2017. 225 b.; Махмудов М.М. Роль отрасли связи и информатизации. Ж. Экономический вестник Узбекистана, №6.2003 г. стр. 17-20.; Iminova N.A. Aloqa va axborotlashtirish sohasida iqtisodiy risklarni boshqarish. 08.00.13. yo'nalish, i.f.n. dissertatsiya, 2012. 176 b. Махкамova М.А. Формирование организационно экономического механизма управления инновационной деятельностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан. 08.00.04. йўналиш, и.ф.д. диссертация, 2004. 291 б.

mexanizmlarini tadqiq etish;

telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion jarayonni uzluksiz ravishda davom ettirishni va nazorat qilishni ta'minlash algoritmini ishlab chiqish;

iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida telekommunikatsiya korxonalarida pul to'lovlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan yagona axborot boshqaruv tizimini yaratish bo'yicha taklif ishlab chiqish;

“O‘zbektelekom” AK tarkibidagi telekommunikatsiya uskunalarini ishlab chiqaruvchi korxonalarining innovatsion faoliyati samaradorligini prognoz qiymatlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti sifatida** “O‘zbektelekom” AK va uning tarkibidagi telekommunikatsiya uskunalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** telekommunikatsiya korxonalarining innovatsion faoliyati jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, taqqoslash, korrelyatsion va regression tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

telekommunikatsiya korxonalarini innovatsion faoliyat samaradorligini baholash usuli beshta mezon asosida mualliflik ko'rsatkichlari tizimidan iborat integral ko'rsatkich asosida takomillashtirildi;

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasida innovatsion jarayonlarni amalga oshirishda telekommunikatsiya korxonalarini innovatsion faoliyat samaradorligini baholash integral ko'rsatkichi asosida takomillashtirilgan innovatsion tizimni joriy etish algoritmi taklif qilingan;

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida telekommunikatsiya korxonalarida pul to'lovlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan “elektron kalkulyator”ni yaratish va uni boshqarishni raqamlashtirish bo'yicha dasturiy mahsulot ishlab chiqilgan;

“O‘zbektelekom” AK innovatsion faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni 2024–2028-yillarga prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Telekommunikatsiya korxonalarini innovatsion faoliyati samaradorligini integral ko'rsatkich asosida baholash usuli ishlab chiqilgan.

Telekommunikatsiya korxonalarining o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda, innovatsion jarayonni uzluksiz ravishda tashkil etish va nazorat qilishni ta'minlab beradigan tizimni joriy etish algoritmi ishlab chiqilgan.

Telekommunikatsiya korxonalarida pul to'lovlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan “elektron kalkulyator”ni yaratish va uni boshqarishni raqamlashtirish bo'yicha dasturiy mahsulot ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** Dissertatsiyada qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, xususan Statistika agentligi, “O‘zbektelekom” AK ma'lumotlaridan va xalqaro konsalting tashkilotlarining hisobotlaridan olingani hamda ilmiy natijalarning, telekommunikatsiya kompleksi korxonalarini amaliyotiga joriy etilgani bilan izohlanadi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan uslubiy taklif, tavsiya va xulosalardan telekommunikatsiya korxonalarini innovatsion faoliyati samaradorligini baholashni integral ko'rsatkichga asoslangan usuli bo'yicha telekommunikatsiya korxonalarini innovatsion rivojlantirish va innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati pul to'lovlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan "elektron kalkulyator"ni yaratish va uni boshqarishni raqamlashtirish bo'yicha dasturiy mahsulot telekommunikatsiya kompleksi korxonalarini innovatsion rivojlantirish usullari va telekommunikatsiya korxonalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonda telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

telekommunikatsiya korxonalarini innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda beshta mezon asosida mualliflik ko'rsatkichlari tizimidan iborat integral ko'rsatkichni hisoblash usuli bo'yicha takliflar "O'zbektelekom" AK faoliyatiga tatbiq qilingan ("O'zbektelekom" AKning 2021-yil 21-oktabrdagi №-27-01-10/4519-raqamli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilish natijasida "O'zbektelekom" AK 2022-yilda korxonaning innovatsion faoliyati samaradorligini 10 %ga oshirishga imkon bergan;

"O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasida innovatsion jarayonlarni amalga oshirishda telekommunikatsiya korxonalarini innovatsion faoliyat samaradorligini baholash integral ko'rsatkichi asosida takomillashtirilgan innovatsion tizimni joriy etish algoritmi "O'zbektelekom" AK tomonidan tarmoq korxonalarini innovatsion faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirishda foydalanilgan ("O'zbektelekom" AKning 2021-yil 21-oktabrdagi №-27-01-10/4519-raqamli ma'lumotnomasi). Ushbu algoritmnining joriy etilishi telekommunikatsiya korxonalarini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlarini optimallashtirish va shunga ko'ra maqsadli chora-tadbirlarni tashkil qilinishida muayyan darajada xizmat qilgan;

iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida telekommunikatsiya korxonalarida pul to'lovlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan "elektron kalkulyator"ni yaratish va uni boshqarishni raqamlashtirish bo'yicha dasturiy mahsulot "O'zbektelekom" AK amaliyotiga joriy etilgan ("O'zbektelekom" AKning 2021-yil 21-oktabrdagi №-27-01-10/4519-raqamli ma'lumotnomasi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi intellektual mulk agentligining 12-noyabr 2021-yil № DGU13533-sonli ma'lumotnomasi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi intellektual mulk agentligining 10-may 2023-yil № DGU-25678 sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi "O'zbektelekom" AK korxonalarini misolida pul to'lovlari harakatini boshqarishni avtomatlashgan tizimini joriy etish orqali operativ ma'lumotlar va hisobotlarni

shakllantirish imkoniyati vujudga keldi va natijada kompaniya hamda filiallarni moliyaviy mablag'laridan samarali foydalanishga zamin yaratdi;

“O‘zbektelekom” AK innovatsion faoliyati samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarni 2024–2028-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari “O‘zbektelekom” AK tomonidan telekommunikatsiya sanoati korxonalarini innovatsion salohiyatini oshirish asosida strategik rivojlantirish va ishlab chiqishning asosiy prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (“O‘zbektelekom” AKning 2021-yil 21-oktabrdagi №-27-01-10/4519-raqamli ma’lumotnomasi). Prognoz ko‘rsatkichlaridan foydalanish natijasida telekommunikatsiya korxonalarini innovatsion salohiyatini oshirish zaxiralarni aniqlash imkonini kengaytirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari, 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, shundan 6 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida korxonalarda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga oid nazariy qarashlar, metodologik-uslubiy yondashuvlar, telekommunikatsiya sohasida innovatsion jarayonlarni rivojlanishining xalqaro tendensiyalari hamda sohada innovatsion faoliyatni amalga oshirish shakllari va usullari tadqiq etilgan.


Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida korxonalar innovatsion faoliyatini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Iqtisodiyotni jadal rivojlantirish sanoatning ustuvor tarmoqlarini innovatsiyalar asosida rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tashqi va ichki bozorlardagi talablarga javob beradigan raqobatbardosh tovarlar va xizmatlarni ko‘paytirish, yangilarini yaratish hisobiga amalga oshirilishini taqozo etadi. Innovatsion faoliyatning aniq va samarali yo‘nalishlarini belgilash, ilmiy

asoslangan innovatsion qarorlarni qabul qilish, innovatsion faoliyatni oqilona tartibga solish iqtisodiy o‘rnatishni ta’minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning nazariy asoslari masalasi telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyatni tashkil etish jarayonlari, telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirishga ta’sir etishning xorijiy tajribasini o‘rganish hamda telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini belgilovchi omillarni ishlab chiqish masalasi ko‘rib chiqildi. Ushbu bobda innovatsiya va innovatsion faoliyat tushunchasiga oid xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning fikrlari tahlil qilindi. Telekommunikatsiya korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlanishi bo‘yicha muallif fikri bayon etilgan.

Telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirishning xorijiy tajribasini o‘rganish orqali telekommunikatsiya sohasining asosiy innovatsion rivojlanish yo‘nalishlari o‘rganildi hamda xorijiy telekommunikatsiya korxonalarining innovatsion faoliyatining zamonaviy tendensiyalari ko‘rib chiqilgan.

Innovatsion faoliyat – bu innovatsiya va innovatsion jarayon tushunchalari majmuasidir<sup>7</sup>. Innovatsion faoliyatni tavsiflovchi birinchi xususiyat – uning tizimlilik tabiatidir. Ushbu xususiyat bu innovatsion faoliyat nafaqat bitta harakatni, balki ilmiy tadqiqot ishlarini ketma-ket o‘zgartirishga qaratilgan harakatlar majmui ekanligini ko‘rishimizga imkon beradi. Innovatsion faoliyatning ikkinchi belgisi – uning murakkab tabiatidir. Eng yangi va takomillashtirilgan mahsulot yoki texnologik jarayonning paydo bo‘lishidan oldin ma’lum chora-tadbirlar majmuasi bo‘lishi kerak. Innovatsion faoliyatning uchinchi belgisi uning maqsadli xarakteridir. Maqsad – bozorda sotiladigan yangi va takomillashtirilgan mahsulotning paydo bo‘lishi yoki amalda qo‘llaniladigan yangi va takomillashgan jarayonni aniqlashdan iboratdir. Innovatsion faoliyatning to‘rtinchi va eng aniq belgisi – bu tavakkalchilikka asoslanganligidir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyat fuqarolik faoliyatining boshqa turlariga qaraganda xavf omillariga ko‘proq moyil bo‘ladi.



**1-rasm. Innovatsion jarayon<sup>8</sup>**

<sup>7</sup> Кокурин Д.И. Инновационная деятельность. - М.: Финансы, 2011.

<sup>8</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan.

Ilmiy adabiyotlarda mavjud bo‘lgan “innovatsiya” tushunchasi ta’riflarini o‘rganib va ilmiy ishimiz mavzusidan kelib chiqqan xolda tadqiqot davomida foydalanish uchun quyidagi ta’rif qabul qilindi: “Innovatsiya – bu korxonalar faoliyatida sifat jihatdan yangi iste’mol xususiyatlariga ega bo‘lgan ma’lum bir mahsulot (xizmat)ni ishlab chiqarish (yaratish) imkonini beradigan ishlanmadir”<sup>9</sup>.

Keng qamrovli xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlarini, telekommunikatsiya korxonalarining innovatsion faoliyatini tahlil qilish natijasida muallif tomonidan telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligining baholash ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi. Ushbu ko‘rsatkichlar 2-rasmda keltirilgan.

Telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari				
<p><b>1. Moliyaviy iqtisodiy ko‘rsatkichlar:</b></p> <p>1.1. To‘lov qobiliyati yoki qoplash koeffitsiyenti;</p> <p>1.2. O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik koeffitsiyenti;</p> <p>1.3. Aktivlar rentabellik koeffitsiyenti;</p> <p>1.4. Harajatlarning rentabellik koeffitsiyenti;</p> <p>1.5. O‘z va qisqa muddatli qarz mablag‘larining nisbat koeffitsiyenti.</p>	<p><b>2. Innovatsion faoliyat moliyaviy ko‘rsatkichlari:</b></p> <p>2.1. Innovatsion loyihalarni jami harajatlardagi ulushi;</p> <p>2.2. Jami xizmatlarda innovatsion xizmat ulushi;</p>	<p><b>3. Korxonaning ichki resurslari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar:</b></p> <p>3.1. Tarmoqning yuklanish darajasi;</p> <p>3.2. Tarmoq qurilmalarining yangilanish koeffitsiyenti;</p> <p>3.3. Kabel xo‘jaligining holati.</p>	<p><b>4. Innovatsion faliyatning natijaviylik ko‘rsatkichi:</b></p> <p>4.1. Hisobot muddatida tadbiq etilgan innovatsion loyihalarni o‘rtacha loyihalar soniga nisbati</p>	<p><b>5. Korxonada moliyaviy sohasida raqamlashtirish jarayonlari:</b></p> <p>5.1. Onlayn to‘lov tizimini mavjudligi.</p> <p>5.2. Innovatsion loyihalarni avtomatlashtirilgan nazorat tizimi</p> <p>5.3. Pul oqimlari harakatining monitoring tizimi;</p>

**2-rasm. Telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari<sup>10</sup>**

Muallif tomonidan taklif etilayotgan telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari beshta qismdan iborat bo‘lib, telekommunikatsiya korxonalarining asosiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan bog‘liq.

Dissertatsiyaning “**Telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyatning joriy holati va uni samaradorligini baholash**” deb nomlangan ikkinchi bobida telekommunikatsion korxonalar innovatsion faoliyatini tahlil qilish, uning samaradorligini baholash usullari AK “O‘zbektelekom” misolida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu bobda muallif tomonidan O‘zbekiston telekommunikatsiya sohasida innovatsion faoliyatni joriy holatini o‘rganish maqsadida sohasini rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan.

“O‘zbektelekom” AK tarkibidagi “TELECOM DEVICE PRO” MChJ korxonasi telekommunikatsiya qurilmalari (optik splitter, 3 xil turdagi optik mufta, ATB rozetka, monoblok, ONT modem, CAM-modul, USB modem, routerlar), quyosh yoritgichlari va elektr jihozlar ishlab chiqarishi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib,

<sup>9</sup> Muallif tomonidan taklif etilayotgan ta’rif

<sup>10</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

hozirgi kunda yiliga 1 mln. dona telekommunikatsiya va boshqa turdagi qurilmalar ishlab chiqarish quvvatiga ega.

1-jadvalda “O‘zbektelekom” AK tarkibidagi “TELECOM DEVICE PRO” MChJ va “GLOBAL OPTICAL COMMUNICATIONS UZBEKISTAN” MChJ QK ishlab chiqarish korxonalarini ko‘rsatkichlari tahlili keltirilgan.

O‘zbektelekom” AK ishlab chiqarish korxonalarini ko‘rsatkichlari tahliliga ko‘ra “TELECOM DEVICES PRO” MChJ ishlab chiqarish hajmi 2022-yilgacha o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. 2023-yilga kelib ishlab chiqarish hajmida pasayish kuzatildi. Bu jarayon moliyaviy ko‘rsatkichlarda ham aks etgan, agar 2019-yilda olingan daromad 23.4 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil yakuniga kelib 132.02 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan. 2023-yilda olingan daromad 91.5 mlrd. so‘m bo‘ldi<sup>11</sup>.

### 1-jadval

#### “O‘zbektelekom” AK ishlab chiqarish korxonalarini ko‘rsatkichlari tahlili<sup>12</sup>

“TELECOM DEVICES PRO” MChJ					
	2019	2020	2021	2022	2023
Ishlab chiqarish hajmi, mahsulot turi (dona)	100 000	120 000	150 000	548 000	388 000
Summasi (mlrd. so‘m)	23,4	28,1	28,7	132,02	91,5
“GLOBAL OPTICAL COMMUNICATIONS UZBEKISTAN” MChJ QK					
Optik tolali kabel (Ftth/drop) ishlab chiqarish hajmi, km	450	1192	14 883	18 543	55 000
Summasi (mlrd. so‘m)	2,4	6,4	34,6	53,7	144,0

“GLOBAL OPTICAL COMMUNICATIONS UZBEKISTAN” MChJ QK esa ishlab chiqarish hajmi doimiy ravishda oshib borgan. Ishlab chiqarilgan Optik tolali kabel (Ftth/drop) ishlab chiqarish hajmi 2019-yilda 450 km.ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 55 000 km.gacha oshdi. Mos holda olingan daromad ham ortib borgan<sup>13</sup>.

Telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash uchun integral ko‘rsatkichni shakllantirishdagi asosiy muammo bu samaradorlikka ta‘sir qiluvchi omillarning ko‘pligi va ularning umumiy integral ko‘rsatkichga ta‘sir darajasi bir xil emasligidadir. Bu masala har bir omilning indikator/ko‘rsatkichlarini shu omilga ta‘sir darajasini belgilab beruvchi “vazn koeffitsiyentlarini” aniqlash orqali yechiladi. Misol uchun, 2-rasmda ko‘rsatilgan moliyaviy iqtisodiy omilning beshta indikatorini umumlashtiruvchi ko‘rsatkichini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$F = \sum_{i=1}^n K_i * f_i, \quad \sum_{i=1}^n K_i = 1 \quad (1)$$

Bu yerda:

F – Umumlashtiruvchi moliyaviy ko‘rsatkich;

K – Vazn koeffitsiyenti;

<sup>11</sup> “TELECOM DEVICES PRO” MChJ ma‘lumotlari asosida keltirilgan.

<sup>12</sup> Ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>13</sup> “GLOBAL OPTICAL COMMUNICATIONS UZBEKISTAN” MChJ QK ma‘lumotlari asosida keltirilgan.

- n – Indikatorlar soni;
- Indikator.

Har bir indikatorni vazn koeffitsiyentini aniqlash uchun T.Saatining iyerarxiik tizimlarni tahliliga asoslangan usulidan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz<sup>14</sup>. Bu usul ko‘riylotgan indikatorlarni birma-bir solishtirib chiqishga asoslangan bo‘lib, maxsus solishtirma matritsa yordamida bajariladi. Iyerarxiyani quyi qismida joylashgan alohida ko‘rsatkichlar guruhi birma-bir solishtirishlar orqali umumlashtiruvchi ko‘rsatkichga aylantiriladi va pirovard natijada iyerarxiyani yuqori qismidagi yakunlovchi integral ko‘rsatkich shakllantiriladi. Ko‘rsatkichlarni birma-bir solishtirish ekspertlar guruhi yordamida amalga oshiriladi<sup>15</sup>.

## 2-jadval

**“O‘zbektelekom” AK moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarining solishtirma matritsasi<sup>16</sup>**

<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>f1</b>	<b>f2</b>	<b>f3</b>	<b>f4</b>	<b>f5</b>
<b>f1</b>	1	$a_{12}$	$a_{13}$	$a_{14}$	$a_{15}$
<b>f2</b>	$a_{21}$	1	$a_{23}$	$a_{24}$	$a_{25}$
<b>f3</b>	$a_{31}$	$a_{32}$	1	$a_{34}$	$a_{35}$
<b>f4</b>	$a_{41}$	$a_{42}$	$a_{43}$	1	$a_{45}$
<b>f5</b>	$a_{51}$	$a_{52}$	$a_{53}$	$a_{54}$	1

Solishtirma matritsani to‘ldirishda har bir qatordagi indikator har bir ustundagi indikatorlar bilan solishtirib chiqiladi. Indikatorlarni birma-bir solishtirilganda ularni umumlashtiruvchi ko‘rsatkichga ta’sir darajasiga qarab quyidagi mezondan foydalaniladi:

Indikatorlar bir xil ta’sir darajasiga ega -1 ball

Indikator ta’sir darajasi bir oz yuqoriroq -3 ball

Indikator ta’sir darajasi yuqori -5 ball

Indikator ta’sir darajasi ancha yuqori -7 ball

Indikator ta’sir darajasi juda yuqori -9 ball

Zarurat tug‘ilganda oraliq baholar 2, 4, 6, 8 ballar ham qo‘llanilishi mumkin. Tabiiyki, matritsani dioganali bo‘yicha ballar doim 1 ga teng bo‘ladi. Agarda matritsaning  $a_{13}$  elementi misol uchun, 5 ga teng bo‘lsa  $a_{31}$  elementi 1/5 ga teng qilib olinadi. Ya’ni:

$$a_{ji} = \frac{1}{a_{ij}}, \quad a_{ii} = 1 \quad (2)$$

Ushbu usuldan foydalangan holda moliyaviy iqtisodiy omil uchun umumlashtirilgan ko‘rsatkichni “O‘zbektelekom” AK uchun hisoblab chiqildi. Moliyaviy iqtisodiy omil uchun tanlab olingan besh indikatorni qiymatlari

<sup>14</sup> (Саати Т.Л.Принятие решений. Метод анализа иерархий. Пер.с англ.Thomas L. Saaty «The Analytic Hierarchy Process». (In Russian). 1993. 320 с. ISBN 5-256-00443-3.)

<sup>15</sup> Тихомирова А.Н., Сидоренко Е.В. модификация метода анализа иерархий Т. Саати для расчета весов критериев при оценке инновационных проектов // современные проблемы науки и образования. – 2012.

<sup>16</sup> Ma’lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

hisoblanadi<sup>17</sup>. Indikatorlarga belgilangan me'yorlar har xil bo'lganligi sababli, biri-biri bilan solishtirishda bir xil nisbiy o'lchamga keltirildi. Ekspertlarni, kompaniyaning innovatsion strategiyasi va qo'yilgan maqsadlarining ustuvorligini inobatga olib, qo'ygan baholariga tayangan holda solishtirma matritsa tuziladi. Matritsani tahlil qilish uchun uning har bir ustunidagi elementlarni yig'indisini topamiz  $B_j$  va har ustundagi elementlarni shu ustun yig'indisiga bo'lib chiqamiz.

$$\text{Ya'ni:} \quad k_{ij} = \frac{a_{ij}}{B_j}, \quad B_j = \sum_i^n a_{ij} \quad (3)$$

$V_j$  – matritsaning  $j$  ustunidagi elementlar yig'indisi;

$k_{ij}$  – me'yorga keltirilgan matritsa elementi.

Bu jarayon matritsani me'yorga keltirish (normirovka) deb ataladi, natija 3-jadvalda keltirilgan. Jadvalni oxirgi ustunida har bir qatorni o'rtacha qiymati keltirilgan bo'lib, bu indikatorlarni vazn koeffitsiyenti deb qabul qilinadi<sup>18</sup>. Ya'ni  $K_1 = 0,48$  – to'lov qobiliyati, qoplash indikatorining umumlashtirilgan moliyaviy ko'rsatkichni hisoblashdagi vazn koeffitsiyenti.  $K_2 = 0,26$  – o'z aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik indikatorini vazn koeffitsiyenti va h.k.

### 3-jadval

#### Moliyaviy iqtisodiy omil ko'rsatkich matritsasining me'yorga keltirilgan natijasi<sup>19</sup>

	f1	f2	f3	f4	f5	O'rtacha vazn $K_i$
f1	0,53	0,63	0,41	0,46	0,39	<b>0,48</b>
f2	0,18	0,21	0,24	0,37	0,28	<b>0,26</b>
f3	0,11	0,07	0,08	0,03	0,17	<b>0,09</b>
f4	0,11	0,05	0,24	0,09	0,11	<b>0,12</b>
f5	0,08	0,04	0,03	0,05	0,06	<b>0,05</b>

Solishtirma matritsa mohiyatidan teskari simmetrik va izchil matritsa bo'lishi kerak. Lekin, matritsani ekspertlar tomonidan tuzilayotgani va baho qo'yishda ekspertlar ziddiyatli fikrlar bildirishi ehtimoli tufayli matritsa izchillik talabiga to'liq javob bermasligi mumkin. T.Saati tomonidan taklif etilgan iyerarxik tizimlar usulining asosiy vazifalaridan biri inson faktorini yakuniy mantiqiy natijaga ta'sirini minimallashtirishdan iborat. Shu maqsadda, matritsani izchillik darajasini aniqlashtirish uchun "Muvofiqlik Koeffitsiyenti" (MK) tushunchasi kiritilgan<sup>20</sup>. MK quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$MK = \frac{\lambda_{max} - n}{n - 1} \quad (4)$$

Bu yerda:

<sup>17</sup> Оценка эффективности инновационной деятельности. Яшин С. Н. И др. Н.Новгород 2018.

<sup>18</sup> Метод анализа иерархий. www.ieml-math.narod.ru/lect/MPUR\_MAI.pdf.

<sup>19</sup> Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>20</sup> Лубенцова Е.В., Ожогова Е.В., Лубенцов В.Ф., Шахрай Е.А., Масютина Г.В. Метод согласованности матриц парных сравнений на основе компонент их максимальных собственных чисел // Современные наукоемкие технологии. – 2020. – № 7. – С. 78-83; С.Н. Яшин, Оценка эффективности инновационной деятельности.

$\lambda_{max}$  – matritsaning maksimal xos qiymati;

$n$  – matritsaning o‘lchami.

Teskari simmetrik izchil matritsani MKni topish uchun avval uning maksimal xos qiymatini hisoblash zarur. Adabiyotdan ma’lum usullardan biridan foydalanib<sup>21</sup>, yuqorida ko‘rilayotgan matritsa uchun maksimal xos qiymatni hisoblaymiz va  $\lambda_{max} = 5,45$  ekanligini aniqlaymiz (hisoblash usuli ilovada keltirilgan). MKni topish uchun (4) formulasidan foydalanamiz:

$$MK = \frac{\lambda_{max}-n}{n-1} = \frac{5,45-5}{5-1} = 0,11$$

Biz foydalanayotgan to‘qqiz pog‘onalik masshtab uchun olimlar<sup>22</sup> tomonidan teskari simmetrik matritsalar uchun tasodifiy muvofiqlik koeffitsiyentlari 15 o‘lchamli matritsalarigacha hisoblab chiqilgan va bu muvofiqlik koeffitsiyentlarini tahlili uchun asos sifatida foydalaniladi (4-jadval).

#### 4-jadval

##### Muvofiqlik koeffitsiyentini tahlili

1	2	3	4	<b>5</b>	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
0	0	0,58	0,9	<b>1,12</b>	1,24	1,32	1,41	1,45	1,49	1,51	1,48	1,56	1,57	1,59

Bu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, besh o‘lchamli matritsa uchun biz olgan natija qoniqarli, ya’ni matritsani taqriban izchil deb hisoblash imkoniyatini beradi.

4-jadvaldagi koeffitsiyentlardan foydalangan holda moliyaviy omilning umumlashtirilgan ko‘rsatkichini 2017–2022-yillar uchun (4) formula orqali hisoblab chiqamiz, natija 5-jadvalda keltirilgan.

#### 5-jadval

##### Moliyaviy iqtisodiy omilning umumlashtirilgan ko‘rsatkichi

Yil	2017	2018	2019	2020	2021	2022
F	1,48	0,88	0,87	0,28	0,29	0,41

Bu umumlashtirilgan ko‘rsatkichni qiymati birga teng yoki undan yuqori bo‘lsa korxonaning moliyaviy salohiyati yuqori darajada bo‘lib, innovatsiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlari yetarli, deb hisoblanadi. Aks holda korxonaning innovatsion loyihalarni amalga oshirish salohiyati moliyaviy jihatdan cheklangan bo‘ladi. Jadvalda keltirilgandan ko‘rinib turibdiki, “O‘zbektelekom” AKning moliyaviy ahvoli 2017–2019-yillar oralig‘ida qoniqarli bo‘lsa, 2020–2022-yillar oralig‘ida nihoyatda qoniqarsiz ahvolda bo‘lib, bu holat innovatsion faoliyatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi usuldan foydalanib qolgan omillar uchun ham umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarni hisoblab chiqish mumkin.

<sup>21</sup> <https://studfile.net/preview/10073013/page:22/>

<sup>22</sup> Модификация метода анализа иерархий Т.Саати для расчета весов критериев при оценке инновационных проектов. Тихомирова А.Н/ Современные проблемы науки и образования.

Yakuniy integral ko‘rsatkichni shakllantirish avval aniqlangan besh omildan, ularni ta‘sir darajasi va ahamiyatiga qarab, vazn koeffitsiyentlarini hisobga olgan holda bajariladi (6-jadval).

**6-jadval**

**Innovatsion faoliyatning samaradorligini yakuniy integral ko‘rsatkichini shakllantirish usuli**

T/r	Ko‘rsatkichlar	Umumlashtirilgan ko‘rsatkich qiymati	Vazn koeffitsiyenti	S - Integral ko‘rsatkich
1.	Moliyaviy iqtisodiy ko‘rsatkich	$F$	$k_F$	$SF = F \times k_F$
2.	Innovatsion faoliyat moliyaviy ko‘rsatkichi	$I_F$	$k_I$	$SI_F = I_F \times k_I$
3.	Korxonada ichki resurslari	$R$	$k_P$	$SP = P \times k_P$
4.	Innovatsion faoliyatning natijaviyligi	$N_I$	$k_N$	$SN_I = N_I \times k_N$
5.	Korxonada raqamlashtirish darajasi	$R$	$k_R$	$SR = R \times k_R$
Jami	Innovatsion faoliyatning samaradorligini integral ko‘rsatkichi S		$k_F + k_I + k_P + k_N + k_R = 1$	$S = SF + SI_F + SP + SN_I + SR$

Jadvalda telekommunikatsion korxonalarda innovatsion faoliyatning samaradorligini yakuniy integral ko‘rsatkichini shakllantirish usuli keltirilgan. Bu usuldan foydalangan holda, O‘zbektelekom korxonasi innovatsion faoliyati misolida 2017–2022-yillardagi innovatsion faoliyatining samaradorligi integral ko‘rsatkichi hisoblab chiqildi.

Natija shuni ko‘rsatadiki, 2017–2020-yillarda innovatsion faoliyatning samaradorligi belgilangan me‘yor, ya‘ni 1 dan pastroq bo‘lgan va 2021–2022-yillarda me‘yordan bir oz yuqori bo‘lgan (7-jadval).


**7-jadval**

**“O‘zbektelekom” AKning innovatsion faoliyat samaradorligini integral ko‘rsatkichi**

Yillar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
S	0,96	0,81	0,93	0,74	1,08	1,01

Eng past natija 0,74 integral ko‘rsatkich 2020-yilda bo‘lib, buning sabablaridan biri shu yildagi moliyaviy omilning juda past darajada (0,28) bo‘lganligi ko‘rinib turibdi. Tahlil davomida integral ko‘rsatkich bilan alohida omillarni birgalikda o‘rganib chiqish investitsion faoliyatning samaradorligini o‘rishini yoki pasayishi sabablarini aniqlashga va tegishli boshqaruv amaliyotlarini yo‘lga qo‘yishda yaxshi samara beradi.

Muallif tomonidan telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion tizimni joriy etish algoritmi taklif qilingan (3-rasm). Taklif etilayotgan algoritm korxonada innovatsion faoliyatni tashkil qilish va boshqarish tizimi tashkilotdagi barcha xodimlarni innovatsion faoliyat jarayonlariga jalb qilishdan tashqari, barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlariga e'tiborni qaratish va nafaqat taqdim etilayotgan xizmatlarning xususiyatlarini, balki tashkilot faoliyatidagi turli sohalarni ham yaxshilashni nazarda tutadi. Mazkur tizim xizmat ko'rsatish davrining barcha bosqichlarida turli xil innovatsiyalarni joriy etish, shu jumladan, tadqiqot va ishlanmalar, materiallar va uskunalarni sotib olish, xizmatlar ko'rsatish va sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish orqali taqdim etiladigan telekommunikatsiya xizmatlarining uzluksiz takomillashtirishni taqozo etadi.



### 3-rasm. Telekommunikatsion korxonalarda innovatsion tizimni joriy etish algoritmi

Dastlabki bosqich qoniqarli bajarilganidan so'ng, innovatsion jarayon avval rejalashtirishdan boshlanadi, yangi ishlanmalarni ishlab chiqish, texnologiyalar va uskunalarni sotib olish, yangicha xizmat turlarini yaratish va ularni amaliyotga

tatbiq etish uzluksiz jarayonga aylanishi shart. Bu faoliyatni boshqarishda jarayonni doimiy nazorat qilish, natijalarni tahlil qilish muhim rol o'ynaydi. Innovatsion faoliyat samaradorligiga umumiy baho berishda muallif tomonidan taklif qilingan integral ko'rsatkichdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Integral ko'rsatkich  $S > I$  bo'lsa, innovatsion faoliyat samaradorligi qoniqarli bo'lib jarayonga keskin o'zgartirishlar kiritishni hojati yo'q.

Ammo lekin integral ko'rsatkichimiz  $S < I$  bo'lsa, u holda muallif tomonidan taklif etilayotgan innovatsion faoliyat samaradorligini baholash ko'rsatkichlari va uning omillarini, ya'ni: moliyaviy iqtisodiy ko'rsatkichlar  $F$ , innovatsion faoliyat moliyaviy ko'rsatkichlari  $I_F$ , korxonaning ichki resurslari bilan bog'liq ko'rsatkichlar  $P$ , innovatsion faoliyatning natijaviylik ko'rsatkichi  $N_I$ , korxonada moliyaviy sohasida raqamlashtirish  $R$  jarayonlarini qayta ko'rib chiqib, tahlil qilish maqsadga muvofiq. Zarur bo'lgan hollarda innovatsion jarayonlarga o'zgartirishlar kiritish talab etiladi. Bu harakatlar, taklif etilayotgan algoritmda, rahbar xodimlarni innovatsion faoliyat bo'yicha malakasini oshirish, kadrlarni qayta tayyorlash va ilmiy tadqiqot institutlarini hamkorlik qilishga jalb qilish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, innovatsion jarayonlarni qayta ko'rib chiqish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bu bosqich amalga oshirilgandan so'ng korxonani innovatsion faoliyatga tayyorgarlik darajasini qayta aniqlash kerak. Taklif qilinayotgan innovatsion tizimni joriy etish algoritmi telekommunikatsiya korxonalarining o'ziga xos jihatlari hisobga olgan holda tuzilgan bo'lib, innovatsion jarayonni uzluksiz ravishda davom ettirishni va nazorat qilishni ta'minlab beradi.

